

DAVLATNING BOZORGA TA'SIRI

Salimov Aziz Farxod o'g'li

Qarshi Davlat Texnika Universiteti Shahrisabz
oziq-ovqat muhandisligi fakulteti o'qituvchisi
E-mail: salimovaziz28101990@gmail.com
Tel: +998 90 880 16 96

Jo'rayev Elmurod

Qarshi Davlat Texnika Universiteti Shahrisabz
oziq-ovqat muhandisligi fakulteti o'qituvchisi
E-mail: jurayeve027@gmail.com
Tel: +998 91 965 19 80

Orziqulov Oybek A'zamjon o'g'li,

Qarshi Davlat Texnika Universiteti Shahrisabz
oziq-ovqat muhandisligi fakulteti talabasi
E-mail: oybekorziqulov02@gmail.com
Tel: +998 77 089 12 00

Jo'rayeva Zahro

Qarshi Davlat Texnika Universiteti Shahrisabz
oziq-ovqat muhandisligi fakulteti talabasi
E-mail: jurayevjaloliddin65@gmail.com
Tel: +998 97 237 77 06

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18240269>

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlatning bozor iqtisodiyotidagi o'rni va uning iqtisodiy jarayonlarga ta'siri tahlil qilingan. Bozor mexanizmining afzalliklari bilan bir qatorda, uning kamchiliklarini bartaraf etishda davlatning aralashuvi zarurligi asoslab berilgan. Maqolada davlatning iqtisodiy siyosat vositalari-fiskal, monetar, narx va tashqi savdo siyosatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, O'zbekiston misolida bozor islohotlarini chuqurlashtirish, raqobat muhitini shakllantirish va ijtimoiy adolatni ta'minlashda davlatning faol roli tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Bozor mexanizmi, fiskal, monetar, narx, tashqi savdo, raqobat, muvozanat, barqarorlik, samaradorlik.

Аннотация: В данной статье проанализирована роль государства в рыночной экономике и его влияние на экономические процессы. Обоснована необходимость государственного вмешательства для устранения недостатков рыночного механизма наряду с его преимуществами. В статье рассмотрены инструменты экономической политики государства — фискальная, монетарная, ценовая и внешнеторговая политика. Также на примере Узбекистана проанализирована активная роль государства в углублении рыночных реформ, формировании конкурентной среды и обеспечении социальной справедливости.

Ключевые слова: рыночный механизм, фискальная политика, монетарная политика, цены, внешняя торговля, конкуренция, равновесие, стабильность, эффективность.

Annotation: This article analyzes the role of the state in a market economy and its impact on economic processes. It justifies the necessity of government intervention to address the shortcomings of the market mechanism alongside its advantages. The article examines the

instruments of state economic policy — fiscal, monetary, price, and foreign trade policies. Using the example of Uzbekistan, it also analyzes the active role of the state in deepening market reforms, fostering a competitive environment, and ensuring social justice.

Keywords: market mechanism, fiscal policy, monetary policy, prices, foreign trade, competition, equilibrium, stability, efficiency.

KIRISH

O'zbekistonda tarixan juda qisqa davr mobaynida erishilgan yutuqlar amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning puxta va izchilligidan dalolat bermoqda. Ular mamlakat iqtisodiy hayotining muhim masalalarini hal etilishida, ijtimoiy taraqqiyotning hayotbaxsh ildizlarini ishga solinishida o'z samarasini ko'rsatmoqda. Ushbu islohotlar iqtisodiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan bo'lsada, ularni amalga oshirishdan ko'zlangan maqsad ichida kichik va o'rta biznesni rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Darhaqiqat, keyingi yillarda barcha rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy siyosatida kichik va xususiy biznesning o'rni tobora kuchayib borayotganligi ko'zga tashlanmoqda. Tadqiqotlarning guvohlik berishicha, kichik biznes o'zining qator ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari bilan, xususan, sog'lom raqobat muhitini vujudga keltirishi, yirik korxonalar faoliyatiga harakatchanlik baxsh etishi, bozordagi talab va taklifga samarali ta'sir ko'rsatishi, aholi va ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirishi bilan o'zining katta salohiyatga ega ekanligini tasdiqlamoqda. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda kichik va xususiy biznes iqtisodiyotning rivojlanish sur'atlarini, yalpi milliy mahsulotning tarkibi va sifatini aniqlab beruvchi yetakchi sektor sifatida shakllangan va tobora rivojlanmoqda. Ana shunday mamlakatlarda iqtisodiyotning ushbu sektori hissasiga yalpi milliy mahsulotning 70 foizi to'g'ri keladi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik va xususiy biznes sektori bozorni tovar va xizmatlar bilan to'ldirish, tarmoqlararo va hududlararo monopoliyaga barham berish, raqobatni kuchaytirish, fan va texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy qilish, mamlakatlar eksport salohiyatini kengaytirish, qishloq va kichik shaharlari rivojlanishida ham muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishning qudratli omilidir.

Bizda ham chet davlatlardagi kabi yangi ish o'rinlarini tashkil etish va ishsizlikning ko'payishini oldini olish, oilalar budjetini mustahkamlash, mahalliy budjetga tushumlarni ko'paytirish va umuman, iqtisodiyot taraqqiyoti sur'atlarini oshirish maqsadlaridan kelib chiqib, kichik va xususiy biznesni rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda va buning uchun yuqorida ko'rsatilganidek, zarur huquqiy zamin yaratildi. Biroq shuni alohida qayd etib o'tish lozimki, kichik va o'rta biznes subyektlarining rivojlanishi yuqori davlat idoralari tomonidan rag'batlantirilib, tartibga solib turilsa-da, mahalliy-hududiy boshqaruv idoralari tomonidan ular uchun muayyan shart-sharoitlar yaratilmasa, ko'zlangan maqsadga erishish qiyin kechadi. Chunki o'z iqtisodiy tabiati va mohiyatiga ko'ra, kichik va xususiy biznes, asosan, mahalliy iqtisodiyotning uzviy qismi bo'lib, ana shu hududdagi mavjud shart-sharoitlar zaminida faoliyat ko'rsatishga moslashgan bo'ladi. Uning mahalliy-hududiy iqtisodiyotga bog'liqligi quyidagilar orqali namoyon bo'ladi: Birinchidan, kichik va xususiy biznes korxonalari, asosan, mavjud hududiy mehnat resurslaridan samarali foydalanish, ularning mehnatga bo'lgan talablarini qondirish uchun tashkil etiladi, iste'molchilar ham o'z ehtiyojlarini qondirish uchun birinchi galda eng yaqin ishlab chiqaruvchilar bilan munosabat o'rnatishga intiladilar. Ikkinchidan, bu

kabi korxonalarning tashkil etilishida mahalliy xomashyo va tabiiy resurslardan foydalanish imkoniyatlari hisobga olinadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida hayotimizga shiddat bilan kirib kelgan tushunchalardan biri bu — menejmentdir. Keng ma'noda menejment ishlab chiqarishni boshqarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turidir. Samarali menejmentni tashkil etish korxona yoki firmada ishlab chiqarishning yuqori samaradorligiga erishishning muhim omili hisoblanadi. Ma'lumki, inson yakka tartibda, ya'ni biron-bir jamoaga birlashmagan holda mehnat qilar ekan, u o'z mehnatini o'zi boshqaradi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, yakka tartibda amalga oshiriluvchi mehnat faoliyati boshqaruvga muhtoj emas. Ammo odamlarning mehnat faoliyatlari bir joyga jamlanib, bir-biri bilan o'zaro bog'liq holatga kelgach, boshqaruvga ehtiyoj paydo bo'ladi va boshqaruv apparatini bunyod etish zaruriyati tug'iladi. Bu apparat ishlab chiqarishning barcha bo'g'inlarini bir butun qilib bog'lashni va tegishli bo'limlar faoliyatini muvofiqlashtirishni zarur bo'ladi. Mehnat jamoasi yiriklashgan sari boshqaruvning vazifalari ham murakkablasha boradi va boshqaruv apparatining texnik, texnologik, ijtimoiy va iqtisodiy masalalarni hal etishdagi mablag' talablari tobora ortadi. Tashkil etilgan ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi insonlarning faolligi, ijodiy yondashuvi, tashabbus ko'rsatishga omillarning ta'siri mavjud bo'ladi. Shuning uchun boshqaruv apparati ishlab chiqarish jarayonida paydo bo'luvchi turli xil ijtimoiy, ruhiy, huquqiy, texnologik va boshqa toifadagi masalalarni hal etadi. Ammo jamoani boshqarish bilan bog'liq munosabatlar ichida tashkiliy munosabatlar hal qiluvchi rol o'ynaydi, deyish mumkin. Xo'jalik boshqaruvining vazifalarini, boshqarilayotgan obyektning ko'lamidan qat'i nazar, quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

- tadqiqotchilik va loyihalash;
- me'yorlashtirish va rejalash;
- tashkilotchilik va muvofiqlashtirish;
- ta'minotchilik;
- hisobot nazorati.

Tadqiqotchilik va loyihalash vazifalariga ilmiy izlanishlarni o'tkazish, kelajak rejalari tuzish va unga oid iqtisodiy ma'lumotlarni o'rganib chiqish ishlari kiradi. Me'yorlashtirish va rejalash boshqaruvni tashkil qilish asoslarini o'z ichiga oladi. Ishlab chiqarishni joriy rejaga ko'ra solishda mehnat va xarajatlarni me'yorlashtirish, ishbilarmonlik jarayoni, texnik va ishlab chiqarish muvozanatini ta'minlash, ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishni belgilash zarur bo'ladi. Tashkilotchilik va muvofiqlashtirish vazifalari ishlab chiqarish boshqaruv negizini tashkil qilib, u boshqaruv apparati tarkibini loyihalash, xodimlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, ishlab chiqarishga muhandislik rahbarligi kabi masalalarni qamrab oladi. Ishlab chiqarish boshqaruvida ta'minotchilik vazifasi ham katta ahamiyatga ega, chunki korxona (firma)ni kerakli xomashyo, materiallar va jihozlar bilan ta'minlash, ishlab chiqarilgan mahsulotni sotishni amalga oshirish kabi ishlar boshqaruv apparatining muhim vazifalaridan hisoblanadi. Korxonaning hisobot nazorati statistik, buxgalteriya va tezkor hisob-kitob ishlarini amalga oshiradi.

Tadqiqot Metodi

Analitik tahlil, moliya-kredit munosabatlarining mukammalligi boshqaruv samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardir. Boshqaruv tizimining samaradorligi ko'p jihatdan boshqaruv uslublariga bog'liq. Biroq shuni ta'kidlab o'tish lozimki, ishlab chiqarishni

ko'rsatib o'tish, menejment fani ishlab chiqarish va jamoada tashkiliy ishlarni yo'lga qo'yishning eng samarali shakl va usullarini o'rganadi hamda ularning asosida boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va boshqarishdagi yakuniy natijalami oshirishga intiladi. Boshqaruv apparatining tarkibini bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'limlar va bo'g'inlar bilan to'ldirish natijasida uning tashkiliy tuzilmasi shakllanadi. Har bir bo'limma o'z vazifalariga ega bo'lib, uning faoliyat chegaralari, vakolatlari va javobgarligini korxona ma'muriyati belgilaydi. Boshqaruvning ilmiy asoslangan va tajribada sinab ko'rilgan qoidalarga tayanib, korxonalarni samarali rivojlantirish bozor munosabatlarini o'zlashtirayotgan xo'jalik amaliyotining zarur shartidir. Hozirgi sharoitda rahbar faqat o'zi sohasini yaxshi bilishgina emas, balki bozor iqtisodiyoti sharoitida ro'y berayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy o'zgarishlar, inson omilining faollashuvi, jamoalarda o'zini o'zi boshqarish tamoyillarining joriy etilishini taqozo qiladi. Rahbar o'z jamoasi ichida mehnat jarayonida vujudga keladigan har xil nizolarni jamoat tashkilotlari bilan birgalikda, yuqori tashkilotlarga chiqmasdan o'zida hal qilishga qodir bo'lishi lozim. Ishlab chiqarishni boshqarishda rahbarning qaysi toifada ekani juda muhim ahamiyat kasb etadi. Rahbarlarning quyidagi toifalarini ko'rsatib o'tish mumkin:

1. Mavjud imkoniyatlardan foydalanib, bir butun, yaxlit ishlab chiqarish birligini yaratish, korxonaning yuqori malakali muhandis-texnik xodimlar va ishchilar bilan butlash.
2. Korxonaning zaif tomonlarini aniqlab, ularni bartaraf etish va ishlab chiqarishning yuqori darajada rivojlanishini ta'minlovchi xo'jalik mexanizmini yaratish.
3. Jamoa a'zolarini yuqori ishbilarmonlik chaqirig'iga va mehnat natijalariga rag'batlantira oluvchi moddiy manfaatdorlik tizimini yaratish.
4. Korxona faoliyatini muntazam nazorat qilib, zamonaviy me'yorlarga o'z vaqtida o'zgartirish kiritish.

Asosiy qism: Bozor iqtisodiyoti – bu tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun-qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir. Bunday iqtisodiyot erkin tovar pul munosabatlariga asoslanib, uning negizida tovar va pulning turli shakllardagi harakati yotadi, u iqtisodiy monopolizmni inkor etadi. Bozor iqtisodiyotida bozor aloqalari butun tizimni, uning barcha bosqichlari – ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash va iste'mol jarayonlarini hamda iqtisodiy munosabatlarning barcha subyektlarini qamrab oladi. Shuni ham e'tiborda tutish kerakki, hozirgi sharoitda o'rtacha rivojlangan iqtisodiyotda 24 milliondan ortiq turdagi tovarlar mavjud bo'lib har yili ularning 1/10 qismi yangilanib turadi. Bunday sharoitda bozorning ishtirokisiz tovar turlari va hajmi bo'yicha talab va taklifni tartibga solishni tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Bu esa bozorning vazifasini hech qanday markazlashtirilgan rejalashtirish idoralari muvaffaqiyatli bajara olmasligining yaqqol dalilidir. Bozor iqtisodiyoti esa eng samarali va muammolarni tezlik bilan hal eta oluvchi ijtimoiy-iqtisodiy tizim hisoblanadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning roli iqtisodiy jarayonlarning samarali tashkil etilishi, barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy tenglikni qo'llab-quvvatlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bozor mexanizmi tabiatan samaradorlik va raqobatni kuchaytirishga xizmat qilsa-da, uning ayrim kamchiliklari — nomukammal raqobat, bozor muvaffaqiyatsizliklari, ijtimoiy adolatsizlik va tashqi ta'sirlar — davlat aralashuvini taqozo qiladi. Davlatning fiskal, monetar, narx va tashqi savdo siyosatlari iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, muvozanatni ta'minlash va iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashda

muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekiston misolida olib borilgan islohotlar, xususan, raqobat muhitini shakllantirish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, eksport salohiyatini oshirish va ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish bozor iqtisodiyotiga izchil o'tishning muvaffaqiyatli yo'lini belgilab bermoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Karimov, A., Xolmatov, B., Rahimov, D. *Makroiqtisodiyot : darslik*. — Toshkent : Iqtisod-Moliya, 2022. — 356 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017–2024 yillardagi bozor islohotlarini chuqurlashtirishga oid farmon va qarorlari. — Toshkent : O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi nashriyot, 2024. — 210 b.
3. Xolmatov, A. Bozor iqtisodiyotida davlatning roli va vazifalari // *Iqtisodiyot va ta'lim*. — 2021. — № 2. — B. 45–52.
4. Tursunova, M. Fiskal va monetar siyosatning iqtisodiy o'sishga ta'siri // *Moliyaviy tadqiqotlar*. — 2022. — № 4. — B. 61–70.
5. Rahimov, B. O'zbekistonda kichik biznesning rivojlanish omillari // *Biznes va boshqaruv*. — 2020. — № 3. — B. 27–33.